



FARG'ONA VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING DINAMIKASI

Qoraboyev Azizjon Abdurasul o'g'li

*Farg'ona Davlat universiteti,
Jahon vamintaqa iqtisodiyoti kafedrası
mustaqil izlanuvchisi.*

Anotatsiya: *Farg'ona viloyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yillar davomida o'zgarish dinamikasini taxlil qilish va mavjud muammolarini ilmiy taxlil qilish.*

Kalit so'zlar: *hududiy joylashuv, eksport, indeks, import, subyekt, aksiyodorlik, tijorat, geografik joylashuv.*

ДИНАМИКА СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ.

Анотация: *научный анализ динамики изменений и существующих проблем субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства Ферганской области на протяжении многих лет.*

Ключевые слова: *территориальное расположение, экспорт, индекс, импорт, предмет, акции, коммерция, географическое положение.*

Mintaqa iqtisodiyoti shakllanayotgan tizimda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqqa iqtisodiy tizimining engharakatchan, sezuvchan, moslashuvchan va o'sish nuqtalarini tez topuvchi segmenti sifatida harakterlanmoqda. So'nggi yillarda mintaqada amalga oshirilgan iqtisodiy liberallashuv jarayonlari, tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirishga qaratilgan islohotlar hamda hududlar rivojlanishiga oid kompleks ilmiy va amaliy dasturlar aynan shu sohaning jadal kengayishiga sabab bo'lmoqda.


Farg'ona viloyati qadimdan silivizatsiya markazlari mavjud, respublikaningsharqida joylashgan, eng zich aholi yashaydigan, sanoataglomeratsiyasishakillangan, server tizimi va qishloq xo'jaligi tarmoqlari bir-birini to'ldirib boruvchi hududlaridan biri sifatida kichik biznes subyektlari uchun keng imkoniyatlarga ega. Viloyatning geografik joylashuvi, aholi punkitlarizij joylashgani, transport tizimi-logistika sistemasi mavjudligi, qulay tizimli iqtisodiy struktura, mehnat resurslari ko'pligi, ichki iste'mol omili mavjudligi hamda hududamilliy hunarmandchilik va an'analari tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga zamin bo'lmoqda⁴⁸.

Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik faoliyatini o'ziga hos jihatlaridan biri mikro hududga tez moslauvchanligi va ixtisosligio'zgaruchanligi sababli viloyatda subyektlarning

⁴⁸Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznesvaxusuiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.

o'sish dinamikasi tez o'smoqda. Investitsiya jarayoni yuqori darajada rivojlanganligi vaqo'llab-quvvatlash dasturlarining yuqori darajada ta'sir ko'rsatayotganligidandir.

Yangi tashkil etilayotgan subyektlar ulushi, faoliyatini to'xtatgan korxonalar tezligi, tarmoqlar bo'yicha taqsimot va rivojlanish sur'atlaridagi farqlar — hududning iqtisodiy muxiti va biznes sharoitlarning real ko'rsatkichidir. Shu bois ushbu maqolada Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni, tarkibi chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida statistika ma'lumotlari asosida yillar kesimidagi o'zgarishlar baholanadi, sektorlar bo'yicha strukturaviy siljishlar o'rganiladi hamda hududiy farqlar tahlil qilinadi.



1-rasm. Farg'ona viloyati bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari dinamikasi⁴⁹.

2013–2024-yillar davomida Farg'ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni sezilarli darajada o'zgarib bordi. Mazkur davr mintaqaning iqtisodiy faolligi, tadbirkorlik muhiti barqarorligi hamda davlat tomonidan yaratilgan sharoitlarning bevosita ta'siri ostida kechgani bilan xarakterlanadi. Jadvaldagi asosiy ko'rsatkichlar – ro'yxatga olingan, faoliyat ko'rsatayotgan, faoliyatini to'xtatgan, yangi tashkil etilgan va tugatilgan subyektlar o'rtasidagi tafovutlar viloyatdagi tadbirkorlik makonining qanchalik dinamik ekanini ko'rsatadi.

2013-yilda ro'yxatga olingan subyektlar 17 954 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 57 095 taga yetgan. Ya'ni 12 yil ichida subyektlar soni qariyb 3,2 barobarga oshgan. 2017-yildan boshlab ayniqsa keskin o'sish kuzatiladi. Bu esa O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ro'yxatga olish tartiblarini soddalashtirish, onlayn

⁴⁹ Davlat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.



ro'yxatga olish tizimlarining joriy etilishi, soliq yukining kamayishi kabi islohotlar samarasidir. Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ham umumiy tendensiyada o'sib borgan. 2013-yildagi 16113 ta korxona 2021-yilda maksimal darajaga – 46 350 taga yetgan. Biroq 2022-yildan boshlab keskin pasayish kuzatiladi va 2024-yilda faqat 28 076 ta faol subyekt qayd etilgan. Ushbu kamayishning bir nechta sababi bo'lishi mumkin:

- Pandemiya keying iqtisodiy tiklanish jarayonlarining sekinlashuvi;
- Soliq va hisobot tizimlarining raqamlashtirilishi natijasida “faol bo'lmagan”, lekin ro'yxatda turgan subyektlarning real holati aniq ko'rsatilishi;
- Raqobat kuchayishi va bozorning o'zgaruvchan talabi;
- Ayrim kichik korxonalar yirik bizneslarning bosimi yoki import o'sishi tufayli bozorga moslasha olmagan.

Faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlarning dinamikasi 2022–2024-yillarda o'zgaruvchanligi bilan harakterlanib. 2021-yilda 1 619 ta bo'lgan “passiv” subyektlar soni 2023-yilda 18949 taga, 2024-yilda esa 29 019 taga ko'tarilgan. Ushbu keskin o'sishning asosiy omillari quyidagilar bo'lishi mumkin⁵⁰:

- Statistic hisob-kitoblarning aniqlashtirilishi (soxta, ishlamaydigan korxonalar bazadan chiqarilgani);
- Iqtisodiy islohotlar natijasida talab va xarajatlar o'zgarishi, ba'zi bizneslar faoliyatini vaqtincha to'xtatishi;
- Pandemiya keying davrda ko'plab kichik bizneslarning tiklan aolmasligi;
- Yuqori kredit yuklamalari va inf lyatsiyaning ta'siri.

Yangi korxonalar soni yillar davomida umumiy o'sish trendini ko'rsatadi. 2013-yildagi 2 705 tadan 2019-yilda 6 712 taga, 2021-yilda esa 9 051 taga yetgan. Bu davrda:

- Tadbirkorlikni boshlash tartiblarining soddalashtirilishi;
- Biznesni yuritishga oid ruxsatnomalarning qisqartirilishi;
- Yoshlar tadbirkorligi dasturlarining kengayishi katta ta'sir ko'rsatgan. 2022–2024-yillarda esa yangi tashkil etilgan subyektlar soni pasaygan (8 828 → 5 949). Bu kamayish ehtimol ravishda:

- Bozorda raqobat kuchaygani;
- Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati murakkablashgani;
- Logistika va xom ashyo narxlarining oshishi bilan bog'liq.

Tugatilgan korxonalar soni keskin tebranishlarga ega. 2013-yilda 1 551 ta bo'lgan korxonalar 2021-yilda 4 221 taga chiqqan, 2024-yilda esa 2 716 taga tushgan. Korxonalar tugatilishiga ta'sir qiluvchi omillar⁵¹:

- ayrim faoliyat turlarining yuqori xarajatlari;
- soliq intizomi kuchaytirilishi;
- pandemiya oqibatlari;
- bozor segmentlarining o'zgarishi va iste'mol strukturasining almashishi.

⁵⁰ www.farstat.uz

⁵¹ www.stat.uz



Xulosa: Statistik taxlillar shuni ko'rsatmoqdaki 2013–2024-yillar davomida Farg'ona viloyatida tadbirkorlik subyektlari sezilarli darajada ko'paygan bo'lsa-da, oxirgi yillarda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar sonining oshishi kichik biznesning barqarorligiga ta'sir qilmoqda. Viloyatda yangi bizneslar sonining ko'pligi tadbirkorlik muhiti rivojlanayotganini ko'rsatsa-da, faoliyatini to'xtatgan korxonalar ko'pligi tizimli muammolar ham mavjudligini anglatadi.

Bu esa kelgusida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit shartlarini engillashtirish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.
2. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
3. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.J. Marketing. – T.: TDIU - 2010.
5. Salamov.I., Qudratov.T., Qudratova.I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (Ma'ruzalar kursi) –Samarqand-2015
6. Burton.G. Tadbirkorlik va kichik biznesni boshqarish. ISBN 978-1-9789-2433-8 Library Press tomonidan. New York, NY 10001, AQSh
7. <https://lex.uz>
8. <https://www.norma.uz>
9. <https://www.stat.uz>
10. <https://www.gazeta.uz>